

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YOXUD CHINGIZ AYTMATOVNING “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANI TAHLILI

Abdusamatova Nozanin

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning dunyoga mashhur asarlaridan biri “Asrga tatigulik kun” romani haqida bayon qilingan bo‘lib, asar syujeti asosida uning bugungi kundagi ahamiyati ifodalab berilgan. Ushbu asar orqali yoshlar ongida asar qahramonlarida kuzatilgan “manqurtlik” tushunchasiga nisbatan immunitetni yuzaga keltirish, davr voqealari va muammolarini bugungi kun bilan mutanosib qo‘ygan holda to‘g‘ri xulosalar chiqarish kabi tushunchalar maqolada o‘z aksini topgan.*

***Kalit so‘zlar:** Globallashuv, madaniyat, g‘oya, mafkuraviy poligon, immunitet, manqurt, Nayman Ona, Edigey, Sario‘zak cho‘li.*

Ma‘lumki bugungi davr insoniyat taraqqiyotidagi eng gullagan, o‘z tarqqiyot cho‘qqisining yuqori pog‘onalariga erishgan davr hisoblanadi. Bu davr bir tomondan yuksak imkoniyatlar, buyuk olamshumul kashfiyotlarni o‘zida jamlagan globallashuv (lot. “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, “dumaloqlashuv”, ”kurralashuv”, ya’ni hayot su‘ratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”) davri bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa axborot xurujlari, ma‘naviyatga tahdid, turli xil yod g‘oya va oqimlar asnosida zararli tushunchalarni yuzaga keltirayotgan jarayon ham hisoblanadi. “Bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qayerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to‘dirishga harakat qiladi”¹.

Ana shunday kishilarning domiga tushmaslik uchun esa yoshlar ongida “**ma‘naviy immunitet**” tushunchasini shakllantirmoq har zamongidan ko‘proq

hozirgi kun uchun suv va havodek zarurdir. Zero, “ Bugungi kunda mafkura poligonlari, yadro poligonlardan ham ko‘proq kuchga ega”.²

Bunday mafkura xurujlariga qarshi turish, ma‘naviy immunitetni shakllantirishda avvalo yoshlar ongida - Vatanga, ona yurtga muhabbat, ajdodlar ruhi bilan faxrlanish, meroslarimizni qadrlash, hayotni, oilani sevish, do‘stlik, or-nomus, tuyg‘ularini singdira olish eng muhim vazifa hisoblanadi. Bunda esa san‘at, musiqa, sport, adabiyot kabi estetik tushunchalar ham o‘z o‘rniga ega. Misol tariqasida **adabiyot** tamoyilini keltirsak, “adabiyot” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “ odob”, “axloq” degan ma‘nolarni bildiradi. Adabiyot kishilar ongida turli voqea-hodisalarni badiiy, obrazli ifodalab berganligi bilan ajralib turadi. Ular o‘zlaridagi illatlarni yo‘qotishda, yaxshilik unsurlarini ko‘paytirishda va eng asosiysi yuqorida ta‘kidlanganidek **ma‘naviy immunitet** (lot. immunitas — biron narsadan xalos, ozod qilish, qutulish).

Badiiy adabiyot inson mahsuli, uning tarixiy manbasi hisoblanadi. Abdulla Qahhor ta‘kidlaganidek “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik lozim” degan so‘zlari bejiz emas. Ushbu badiiy mukammal chizgilar esa o‘z navbatida badiiy asarlarda ifodalanadi. Badiiy asarlar orqali yoshlar ongida yaxshilik unsurlari o‘z-o‘zidan orta boradi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “ Odamlarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma‘naviy saviyasini yuksaltirish vositasi- bu kitob. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma‘naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q ”³ degan jumllarining o‘zi yuqoridagi so‘zlarning yaqqol isbotidir.

Chingiz Aytmatovning “ Asrga tatigulik kun” romani shaxsan men o‘qigan kitoblar orasida ham sevimli asarimga aylangan kitob hisoblanadi. Romanga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu asar yozilgan davridan to shu kunga qadar o‘zining millionlab kitobxonlar diqqatiga sazovor bo‘la oldi. Shaxsan men ham ushbu asarni o‘qish jarayonida o‘zim uchun ajoyib taassurotlarga ega bo‘ldim.

1. Islom Karimov “ Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” Toshkent- 2008-y 8-b

2. Islom Karimov “ Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” Toshkent- 2008-y 71-b

Asar dastavvalida Grigor Narikatsining “Musibatnoma” asaridagi misralar **epigraf** (yun. — ustki yozuv; adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo‘yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo‘nalishini belgilab beradigan teran ma’noli ibora, maqol, matal, hikmatli so‘z, qo‘shiq, she‘r yoki o‘zga bir manbadan olingan parcha) sifatida qo‘llanilgan. Albatta, asarga bunday epigraf bejiz tanlanmagan. Boisi Chingiz Aytmatov ham bu romanini xuddi Grigor Narekatsi singari o‘zining “jo-un jahoni” bilan teng ekanligini mana shu misralar bilan dalillaydi. Mazkur romon shunchaki qo‘l uchida yozilgan asar emas, aksincha, nozik va chinakkam didning amaldagi ifodasi, hayot chizgisi hisoblanadi.

Asar syujeti dastlab Sario‘zak dashti va undagi Bo‘ronli bekatida ishlovchi Edigey kabi personajlar bilan boshlanadi. Yozuvchi Sario‘zak atamasini “Sariq dashtlarning o‘rta yerlari” deya izohlaydi. Keyinchalik Edigeyning marhum do‘sti Kazangap vafot etadi va uni Ona Bayit qabristoniga qo‘yishga ahd qilishadi. Marhumning barcha qo‘shnilari uning dafn marosimi uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan bir vaqtda shaharda yashaydigan yakka-yu yolg‘iz o‘g‘li Sobitjon otasining qayerga ko‘milishiga befarq, hattoki o‘z oilasini ham allaqanday davomot va baholar uchun olib kelmagan bo‘lib chiqadi. Bu ham yetmaganidek marhumning dafn marosimlariga tayyorlanayotgan vaqtda u hammani chalg‘itib, o‘zining obro‘-e‘tibori, allaqanday yuqori doiralarda ishlaydigan tanishlarining hayotini hikoya qilib, yig‘ilganlarni chalg‘itib o‘tiradi. Asarda Sobitjon obrazi pirovardida zamonaviy “manqurtlik” illati gavdalantiriladi va bu obraz orqali ushbu illatning naqadar zararli ekanligi o‘qtiriladi. Sobitjon “o‘likka qayerga ko‘milishning nima farqi bor, yer bo‘lsa bo‘ldi-da” deb otasining mayitini qabristonga olib borishdan bosh tortadi. Asar davomida esa Edigeyning qistovi bilan Sobitjon ham otasining mayitini Ona Bayit qabristoniga qo‘yishga rozi bo‘ladi va ular yo‘l-yo‘lakay ushbu qabriston haqidagi achinarli afsonani ham yodga olishadi. Ushbu qabristonga ketish jarayonida Edigeyning barcha hayot yo‘llari yoritiladi. Dastavval Edigey urush davrida jangda jarohat olib, temir yo‘l bekatida ishlay boshlaydi. Asarda yozuvchi Edigeyga Bo‘ron laqabi berilganligini ikki sabab orqali izohlaydi, birinchisi Edigey ishlagan bekat

Bo‘ronli bo‘lganligi bilan izohlansa, keyingi sabab uning xarakteri ham bo‘ron misol shiddatkor ekanligi bilan tavsiflanadi.

Edigey dastlab temir yo‘l bekatida Kazangap bilan tanishib do‘stlashadi. Kazangap Edigeyga afsonaga aylangan Qoranor ismli tuyasini ham sovg‘a qiladi. Ular yashaydigan ovulchada atigi 5-6 xonadon bo‘lib, aynan shu xonadon vakillari asarda asosiy obrazlarni tashkil qiladi va bu oilalar orqali butun qirg‘iz ovullarining yashash tarzi haqqoniy ifodalanadi. Romanning keyingi qismlarida ular tarafga Abutolib Quttiboyev, uning xotini Zarifa va ikki yosh farzandi bilan ko‘chib keladi. Zarifa asarda sabr-qanoatli, sadoqat timsoliga ega ayol sifatida tasvirlangan. Abutolib bu yerda bolalarga muallimlik qila boshlaydi va urushdagi partizanlik xotiralarini oqqa ko‘chirib asar yozishga ahd qiladi. Ammo uning bu harakatlari shubhali deb topilib shafqatsiz Tansiqboyev tomonidan qilingan so‘roq jarayonida u aybdor deb topiladi va qamalib ketadi. Oradan yillar o‘tib esa farzandlari tomonidan Abutolibning aybsizligi isbotlanadi. “Haqiqat egiladi, bo‘kiladi, ammo sinmaydi” deganlari shu bo‘lsa kerak.

Keyinchalik esa Ona Bayit qabristoni haqida so‘z borib, Nayman onaning o‘g‘li Jo‘lomon o‘z yerlarini junjanglardan himoya qilish maqsadida qabiladoshlari bilan urushadi va bu jarayonda u junjanglarga asir tushib, manqurt holiga kelganligi, uni olib kelish uchun kelgan onasini hatto tanimay otib o‘ldirib qo‘yganligi, Nayman onaning mashhur tuyasi Oqmoyaning qush bo‘lib onasining Jo‘lomonga aytgan so‘zlarini bod-bod takrorlab aytib yurishi yozilgan.

Ammo shu o‘rinda kitobxonning bir jihatni e‘tibordan chetda qoldirmasligi lozimligini ham eslatib o‘tish lozim. Bu jihat shundan iboratki, asarda ikki inson-Sobitjon va Jo‘lomon garchi manqurt sifatida gavalantirilgan bo‘lsa-da, ular orasida katta farq ham borligini anglab yetish zarur. Boisi, Sobitjon otasi Kazangapning uning yoshligida qilgan fidokorligi, bolasining o‘qib bilim olishi uchun nechog‘lik harakat qilganligini keyinchalik unutib, o‘z harakatlari sababdan ham manqurtga

3. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent 2017-y.

aylangan bo'lsa, Jo'lomonda esa buning aksi, u manqurt bo'lishni xohlamas, o'z ovulining mustaqilligi uchun kurash chog'ida tasodifan dushman qo'lga asir tushib xom tuya kigizidan yasalgan tulupga majburlab dushman tomonidan xotirasidan ajralib manqurtga aylangan edi. U shu kundan e'tiboran dushman qo'lga asir bo'lib qoladi. Albatta, onasini ham o'ldirilishida biz Jo'lomoni to'liq aybdor deya olmaymiz.

Asar so'ngida esa Kazangapning mayiti qabristonga qo'yilishiga to'sqinliklar bo'lganligi sababdan ham, o'likning qabriston atrofidagi kimsasiz yerning ikki eniga dafn qilishadi. Butun umrini mehnat, uy-ro'zg'or, mahalla-kuy tashvishlari bilan o'tkazgan Kazangapning bunday kimsasiz joylarda qolib ketishi kishini uyga toldirmay qo'ymaydi.....

Ushbu roman Chingiz Aytmatovning bir qator asarlari- "Jamila", "Alvido, Gulsari", "Sarviqomat dilbarim", "Oq kema", "Qiyomat", "Oxirizamon nishonalari", "Tog'lar qulaganda" kabilar bilan bir qatorda e'tirof etilgan nodir adabiyot durdonalari safidan o'rin egallay oldi. Adibning barcha asarlari o'z e'tirofiga ega.

Xulosa. Biz bugungi kunda zamon bilan hamnafas, davrning barcha muammolarini anglab yetadigan, har kundan, har xatosidan to'g'ri saboq chiqara oladigan, ma'naviyati buyuk yoshlarni tarbiyalashamiz har kungidan ko'ra zarur, albatta. Bu borada esa ushbu jihatlarga undovchi badiiy adabiyotdek qudratli quroldan o'z o'rnida foydalanmoq, asarlar zamirida hayot qiyinchiliklaridan xulosa chiqara olish zarur ekanligini anglab yetmoq kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chingiz Aytmatov "Asrga tatigulik kun"
2. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent- 2008-y 8-b
3. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent- 2008-y 71-b
4. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent 2017-y.
5. 5-sinf adabiyot Toshkent 2020-y 72-b.
6. Eshchonova Dilnoza "Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asari tahlili" 2022-y.